



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 25-dekabr

742-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida” 2024-yil 18-dekabrda PQ-443-sonli, viloyat hokimining shu mazmundagi 2024-yil 20-dekabrda 611-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida” 2024-yil 18-dekabrda PQ-443-sonli, viloyat hokimining shu mazmundagi 2024-yil 20-dekabrda 611-6-0-Q/24-sonli qarorlarini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida” 2024-yil 18-dekabrda PQ-443-sonli, viloyat hokimining shu mazmundagi 2024-yil 20-dekabrda 611-6-0-Q/24-sonli qarorlari rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

Sport vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarining haftaning har payshanba kunini jismoniy tarbiya va sport kuni sifatida belgilash to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

belgilanishicha;

a) tuman (shahar)larda ommaviy va professional sportni rivojlantirish hamda sport siyosatini yuritish Sport vazirligi tizimidagi sport maktablari tomonidan amalga oshirilishi;

b) sport maktablarining faoliyati bolalar, o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, sport bilan muntazam shug‘ullanuvchilar sonini bosqichma-bosqich oshirib borishga yo‘naltirilishi;

d) 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab:

hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari, aholining qiziqishlari, shuningdek, erishilgan sport natijalari hamda mavjud sport infratuzilmasidan kelib chiqib, sport maktablarini sport turlariga ixtisoslashtirish amaliyoti joriy etilishi;

sport maktablarida mavjud shtat birliklari doirasida Sport vazirligi tomonidan belgilanadigan miqdorda ommaviy sport bo'yicha trener-seleksioner lavozimi joriy etilishi;

har bir ommaviy sport bo'yicha trener-seleksionerga 5 tagacha mahalla va uning hududidagi davlat ta'lim muassasalari biriktirilishi;

ommaviy sport bo'yicha trener-seleksioner o'ziga biriktirilgan hududda yoshlar yetakchilari hamda jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan hamkorlikda "Besh tashabbus olimpiadasi", "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlari va boshqa ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazib borishga mas'ul hisoblanishi;

sport maktablarining ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya bo'yicha direktor o'rinbosarlari hamda ommaviy sport bo'yicha trener- seleksionerlar bazaviy tarif stavkasiga ustamalar "Besh tashabbus olimpiadasi", "Jismoniy tayyorgarlik darajasi" sport sinovlaridagi natijalar hamda sport maktabiga seleksiya qilingan iqtidorli yoshlar sonidan kelib chiqib belgilanishi;

Sport turlariga ixtisoslashtiriladigan sport maktablari ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

bunda sport turlariga ixtisoslashtiriladigan sport maktablari uchun har yilgi vazifa va maqsadli ko'rsatkichlar Sport vazirligi tomonidan belgilab borilishi;

belgilab qo'yilishicha, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari har yili 1-fevralga qadar Sport vazirligi bilan kelishgan holda o'z hududlarida jismoniy tarbiya va sport sohasida amalga oshiriladigan vazifalar hamda erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni belgilashni nazarda tutuvchi yillik Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish dasturlarini (keyingi o'rinlarda - hududiy dasturlar) tasdiqlashi;

Sport vazirligi hududiy dasturlarda nazarda tutilgan chora- tadbirlarning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini muntazam ravishda monitoring qilishi hamda har chorak yakuni bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borishi;

Sport vazirligining 2025/2026-o'quv yilidan boshlab hududlardagi olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari faoliyatini quyidagi yangicha tartibda tashkil qilish to'g'risidagi taklifi ma'qullanganligi:

olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari negizida amaldagi moliyalashtirish tartibini saqlab qolgan holda sport turlari bo'yicha mahorat maktablari (keyingi o'rinlarda - mahorat maktablari) tashkil qilinishi;

mahorat maktablari faoliyati sport turlari bo'yicha iqtidorli yosh sportchilarni saralab olish va ularni terma jamoalarga asosiy nomzod sifatida tayyorlashga yo'naltirilishi hamda alohida sport turlariga ixtisoslashtirilishi;

mahorat maktablari o'quvchi-sportchilarining umumiy kontingenti jami 150 nafardan ko'p bo'lmagan miqdorda 7-11-sinf o'quvchilaridan iborat bo'lishi;

mahorat maktablari o'quv dasturini o'zlashtirgan va yakuniy davlat atestatsiyasidan o'tgan 11-sinf bitiruvchilariga davlat namunasidagi umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi shahodatnoma berilishi;

mahorat maktablarida oziq-ovqat bilan ta'minlash xarajatlarini qisman qoplash uchun o'ta-onalar to'lovi undirilmasligi;

o'rtantilgan tartibga muvofiq:

a) mahallalarda sport to'garaklarini tashkil etgan trenerlarga o'zi tayyorlayotgan sportchilarni "ERP-sport" yagona elektron boshqaruv tizimida ro'yxatdan o'tkazish imkoniyati yaratilishi; bunda:

mazkur trenerlarga o'zini o'zi band qilish huquqi berilishi;

trenerlar o‘z hududidagi sport maktabiga biriktirilishi;

trenerlarga tegishli moliya yilida uchun sport maktabiga ajratilgan mablag‘lar doirasida ijtimoiy buyurtmani bajarganlik uchun ularni rag‘batlantirish tizimi joriy etilishi;

b) jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar reestrini (keyingi o‘rinlarda - reestr) yuritish tartibi joriy etilishi; bunda:

reestrga ixtiyoriy tartibda sport klublari, fitnes klublar, sport ta’lim tashkilotlari, jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat yurituvchi boshqa yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar kiritilishi;

reestrga kiritilgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga sportchilarni “ERP-sport” yagona elektron boshqaruv tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish huquqi berilishi;

reestr Sport vazirligi tomonidan “ERP-sport” yagona elektron boshqaruv tizimida yuritilishi;

d) sport pasporti amal qilish muddati cheklanmagan holda “ERP-sport” yagona elektron boshqaruv tizimi orqali elektron shaklda berilishi;

bunda sport pasporti ma’lumotlari shaxsning biometrik identifikatsiya ma’lumotlari bilan integratsiya qilinishi hamda sport pasportini berish bo‘yicha ariza beruvchidan undiriladigan to‘lovning Sport vazirligiga o‘tkaziladigan qismi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Sport vazirligi huzuridagi “Raqamlashtirish va sertifikatlash markazi” MChJga yo‘naltirilishi;

e) 2026-yildan boshlab sport-ta’lim muassasalarining trener-o‘qituvchilari va yo‘riqchi-uslubchilariga malaka toifalarini berish hamda sport hakamlariga malaka toifasini berish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish proaktiv shaklga o‘tkazilishi;

f) sport federatsiyalari (uyushmalari) va sport turlari (sport turining tarmoqlari) reestrini shakllantirish, yuritish va reestrda chiqarish tartibi Sport vazirligi tomonidan belgilanishi;

bunda sport federatsiyalari (uyushmalari) va sport turlari (sport turining tarmoqlari)ni aniq belgilangan mezonlar asosida reestrda kiritish va reestrda chiqarish tartibi joriy etilishi;

i) jismoniy tarbiya-sport tashkilotlarida trenerlik faoliyati bo‘yicha malaka oshirganlik haqidagi sertifikatga ega bo‘lmagan shaxslar tomonidan trenerlik faoliyatini amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmasligi;

belgilanishicha, sport infratuzilmasidan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida 2025-yil 1-sentabrdan boshlab sport inshootlari reyestrini yuritish tartibi joriy etilishi;

bunda:

barpo etilib, foydalanishga topshirilgan sport inshootlari mulkdor yoki balansda saqlovchining arizasiga muvofiq sport inshootlari reyestriga kiritilishi;

belgilangan tartibda foydalanishga topshirilgan sport inshootini reestrda kiritishni rad etishga yo‘l qo‘yilmasligi;

sport inshootlari reestrini shakllantirish, yuritish va sport inshootlarini reestrda chiqarish Sport vazirligi tomonidan amalga oshirilishi hamda ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar “ERP-sport” yagona elektron boshqaruv tizimida ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi;

sport inshootlari reestriga kiritilmagan sport inshootlarida rasmiy sport musobaqalari o‘tkazilmasligi;

hududlarda Sport vazirligi tizimidagi sport inshootlarida jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid bo‘lmagan tadbirlarni o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmasligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar

Mahkamasi topshiriqlari hamda Sport vazirligi bilan kelishilgan holda o‘tkaziladigan tadbirlar bundan mustasno ekanligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman sport maktabi (M.Abduqodirov), manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-dekabrda PQ-443-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov